



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Shamuradova Shoira Raimberdiyevna

Nizomiy nomidagi TDPU magistri

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

KEY WORDS

Albom, analizator, anketa, applikatsiya, bilim, material, muloqot, dars, dastur, daftar, yozma, zaif eshituvchi, korreksiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari, usullari, vositalari va muammolarini o'rganish va hal etish yoritilgan.

Mamlakatimizda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, sog'lom insonlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi. ".....aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish" kabi muhim vazifalar belgilandi¹. Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida rivojlantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, sog'lom insonlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi. ".....aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish" kabi muhim vazifalar belgilandi². Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida rivojlantirish orqali ularni ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

Ta'lim-tarbiya tizimi yurt taraqqiyotining asosiy poydevori bo'lib, pedagogik faoliyatni har tomonlama puxta va aniq rejalar asosida tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlar, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni aytish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tili ta'limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an'ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan g'ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash bilan bog'liq metodik ishlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

So'nggi paytlarda mamlakatimizda ta'lim mazmunini xalqaro ta'lim standartlari talablariga muvofiq yangilash borasida samarali yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va o'quv dasturlari hamda yangi avlod darsliklari yaratilib, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, uquv va layoqatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, mustaqil fikrli, har qanday vaziyatda munosib ish ko'ra oladigan, e'tiqodida sobit, qat'iy pozitsiyaga ega, bir so'z bilan aytganda, kompetentli shaxsni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonidir.

Kompetensiya ("sompotence" "tocompete" so'zidan kelib chiqqan) so'zi o'zida "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" ma'nolarini ifodalaydi. So'zma-so'z tarjima qilinganda, "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida ifodalanadi. Psixologik-pedagogik manbalarda qayd etilishicha, kompetensiya, kompetentlilik judamurakkabhisoblanib, ko'p qisimli tarkibdan iborat, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushuncha hisoblanadi³. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no tarkibiga ko'ra, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati shundan iboratki, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "uquvlilik", "muvaqqatlilik", "natijalilik", "tushunuvchanlik", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi.

Kompetensiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlarda mazkur tushunchadan ta'limning yakuniy natijalarini ko'rsatish hamda shaxsning turli xususiyatlarini tavsiflashda foydalanilgan. Ta'limda kompetensiyalarning asosiy funksiyasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ijtimoiy talabning namoyon etishi; bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llash uchun atrof-muhitdagi real bo'lgan ob'ektlarni ko'rsatishi; turli o'quv vositalari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir qatorda aniq masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishdan iborat.

Kompetensiya tushunchasining fan va turmushga kirib kelishi tarixi quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich (1960–1970 yillar)da tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiya kiritilgan bo'lib, Dell Xayms tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi bilan yuritildi.

Ikkinchi bosqich (1970–1990 yillar)da kompetensiya, kompetentlilik kategoriyalari ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganishda uning nazariyasi va amaliyoti boshqarishda, rahbarlikda, menejment va professionallikda muloqotni o'rganish uchun foydalanilgan. Shuningdek, "ijtimoiy kompetensiya" tushunchasining mazmuni ham ishlab chiqilgan⁴.

O'quv jarayonida ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, intilishga, barcha masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his eta olish, tahlil

³Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. Monografiya. –Toshkent: Fan vatexnologiya, 2016. – 164 b.

⁴Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. // O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2016. – 154 b.

qilish, qo'shimcha vositalardan unumli foydalanish o'zi tanlagan kasbga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni axborotlarni izlab topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishga, xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishga qaratiladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan darslarning an'anaviy darslardan farqi shundaki, o'quvchiga o'z fikrini mustaqil bayon etishga imkon yaratiladi.

O'quvchining shaxsiyatiga ta'sir etmaydigan savollar berish yordamida do'stona munosabatdagi o'quv muhiti vujudga keltiriladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonining muhim qismi – maqsaddan kelib chiqib, har bir darsni qoidalar tartibini yaratishdan boshlash va mashg'ulotning mazmunli o'tishiga ko'mak berishdir. Dars jarayonining ushbu bosqichida o'quvchilarni o'z g'oyalari va takliflari bilan chiqishga chorlash hamda shu vaqtning yzida barcha g'oya va takliflarni muntazam yozib borish lozim. Imkon qadar qisqa va tushunarli tarzda yozib ko'rsatilgan qoidalar o'quvchilar tomonidan, o'qituvchi yordamida izohlab beriladi. Jumladan, doskaga quyidagi eslatmalarni yozib qo'yiladi:

- salbiy munosabatda bo'lmang va baholamang (ishtirokchilar boshqalar fikrini muhokama etmaydi, baho bermaydi va tanqid qilishmaydi);
- javoblar noto'g'risi bo'lmaydi (xato qilishdan cho'chimang);
- fikrlaringizni o'zgartiring, asoslab boyitib boring, (o'quvchilar fikriga o'zgartirishlar kiritib oling, qo'shimcha fikr bildiring, fikrlaringizni asoslab bering);
- xotirjam bo'ltishga urining va ishtirok eting (o'zaro yordam va dystona musobaqa muhitini yarating).

Ta'lim jarayonida yynaltirish va rag'batlantirish uchun qoidalar, fikrlar tyg'risida yquvchilarga eslatib turish lozim. Pedagogik texnologiya ta'lim tizimining yangicha yo'llarini ishlab chiquvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iborat. O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyil bo'lishlari, fe'l-atvori har xil bo'lishidan qat'iy nazar, o'qituvchiularni mustaqil fikrlash, mushohada yuritish va xulosa chiqarishga o'rgatishi kerak. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan bir qatorda, vatanparvarlik g'oyalarini ularning ongi va qalbiga singdirib borishni ko'zda tutadi. Ushbu jarayon va holatlarda xalqimizning boy ma'naviy merosi, an'ana va udumlarini o'quvchi qalbiga singdirish orqali amalga oshiriladi. Ona tili fanida mavzularni o'rganish va gaplarni tahlil qilish orqali ham yuqoridagi maqsadni amalga oshirish mumkin. Lekin ba'zi mashqlarda berilgan gaplar o'quvchilar uchun ham birdek tushunarli emasligi sababli gaplar ustida ishlash jarayoni bir muncha murakkab va zerikarli kechishi mumkin. Bu holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga asoslangan ta'lim shakllangan bo'lishi lozim. 6-sinf ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni **“Tanishuv”** texnologiyasivositasiida **“Matn turlari”** mavzusi misolida shakllantirishni namuna sifatida keltiramiz:

Texnologiyaning maqsadi:

o'quv jamoasi ishtirokchilarini tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish;

o'quvchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish;

sinf xonasida ishlash uchun qulay sharoitni vujudga keltirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulot boshida o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruhga yilning bir faslida tug'ilgan o'quvchilarni kiritadi va quyidagi topshiriqni beradi:

o'zingiz tug'ilgan faslingizga xarakteristika bering (badiiy-musiqiy, sahnali, hazil-mutoyibali va hokazo ko'rinishda);

yilning shu faslida tug'ilganlarning umumiy xarakteri hamda guruh qatnashchilarining o'xshashliklari va o'ziga xos tomonlari bilan tanishtiring;

ushbu faslga ta'rif bering;

boshqa fasldagi guruh qatnashchilarigaijodiy tilaklar bildiring.

O'qituvchi o'quvchilarni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi. O'quvchilarning berilgan topshiriqni o'z vaqtida bajarishi uchun tayyorlanishga vaqt ajratiladi va sharoit yaratiladi. Guruhlar tayyorgarlikni boshlaydilar. Ushbu chiqish adabiy-musiqiy kompozitsiya shaklida ham tayyorlanishi mumkin. "Tanishuv" texnologiyasining birinchi bosqichi orqali o'quvchilarda o'zaro tanishish va do'stona munosabatda bo'lish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda guruhlar tayyorlagan ijodiy chiqishlarini namoyish etadilar. Ona tili darsligida berilgan mashqlardagi matnlar bo'yicha fikr-mulohaza bildiradilar. Matnlarga sarlavha qo'yib, har biriga izoh beradilar. Dastlab "Hikoya matni", "Tasviriy matn" va "Muhokama matni" bo'yicha yozilgan matnlarni o'qib tahlil qiladilar.

Birinchi guruh: hikoya matni haqida.

Ikkinchi guruh: tasviriy matn haqida.

Uchinchi guruh: muhokama matni haqida.

1-guruh. Hikoya matni. "Iftixor"

"Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo'ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: "Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!" Rostini aytsam, ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so'zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag'in yuzlab xorijiy yo'lovchilar o'tirgan kemada!.. Aqalli mana shu holatning o'zi uchun Istiqlolga ming bora ta'zim qilishga tayyorman!" (O'tkir Hoshimov)

Birinchi guruh ishtirokchilari "Iftixor" sarlavhasi bilan berilgan matn nega aynan hikoya matnida bo'lgani va uning ta'rifini aytadi.

2-guruh. Tasviriy matn. "Orol va daryo"

"Orol o'sha-o'sha. Uzoqdan turib qarasang ko'z to'yamaydi. Ilon kabi buralib oquvchi daryo shu yerga kelganda, ikkiga ajralgan, uch chaqirimdan so'ng yana birlashadi. Qo'shkokil yanglig' irmoq orasidagi orol esa yashnab turibdi. Na'matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo'lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug'vor" (Tohir Malik).

Ikkinchi guruh ishtirokchilari "Orol va daryo" sarlavhali tasviriy matnda nima berilgani va unda nima tasvirlanganini izohlaydi.

3-guruh. Muhokama matni. "Navro'z"

"Navro'z o'zbek xalqining shunday bir qadriyatiki, u millatning borligini, ulug'ligini namoyon etadi. Navro'z hech bir shubhasiz, xalqimiz bilan birga yashab, birga ulg'ayib, taraqqiy topgan bayramdir. Xalq tarixi va madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan Navro'z qanchalik ko'hna ildizlarga ega bo'lsa, ayni paytda shunchalik har yili biz bilan yonma-yon yangilanib, qayta

quvvatga kiradi. Ushbu bayramga munosabat xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajagiga munosabatning ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi" (Sh. Turdimov).

Uchinchi guruh ishtirokchilari "Navro'z" sarlavhali matnda nimaning muhokamasi berilgani va matn nima haqda ekanligini izohlaydi.

Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan ijodiy ishni to'ldirishlari va mavzuga doir savollar berishlari mumkin.

Savollar matn bo'yicha bo'lib, ular quyidagicha:

1. Hikoya matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Hikoya matnida muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

2. Tasviriy matn deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar ta'riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi. Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko'proq qo'llanadi.

3. Muhokama matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matn hisoblanadi. Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko'proq qo'llanadi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. 5-6-sinflar ona tili ta'limi bolalarning tafakkur faoliyatini kengaytirish, mustaqil fikrlash, o'zgarlar fikrini tushunib yetish, muuloqot madaniyatiga amal qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'lish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ona tili ta'limida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish o'quvchi shaxsiga o'quv faoliyati sub'ekti sifatida yondashish; o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligini ta'minlash; o'qitishning shakl, metod, vositalarini tizimlashtirish; dars loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish; leksik-grammatik mashq topshiriqlarini takomillashtirish; o'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish kabi vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 20-29. <https://www.lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Головчин Л.А. Дошкольная сурдопедагогика. – М.: Владос, 2001.

6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO'MM, 1993.
7. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. «Surdopedagogika» Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – Toshkent: «Sano-standart» 2012
8. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63

